



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA “ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNI TASHKIL ETISH

Eshboyeva D.D.

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti magistranti

Tayanch so’zlar: rivojlantiruvchi markazlar, polifunksional, xavfsiz, shaxsga yo’naltirilgan, muqobil, rivojlantiruvchi muhit, mahalliy sharoitga moslashtirilgan, xulq-atvor, ta’lim, tarbiya.

Ключевые слова: развивающие центры, многофункциональная, безопасная, личностно-ориентированная, альтернативная, развивающая среда, адаптированная к местным условиям, поведению, обучению, воспитанию.

Key words: developmental centers, multifunctional, safe, person-oriented, alternative, developmental environment, adapted to local conditions, behavior, education, upbringing.

Hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan Yangi O’zbekiston kelajagi hisoblangan maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishi aqlan va jismonan barkamol bo’lib yetishishida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan ta’lim – tarbiya jarayonining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlarda 5 ta rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat olib boriladi:

1. “Til va nutq” markazi
2. “Qurish, yasash va matematika” markazi
3. “San’at” markazi
4. “Fan va tabiat” markazi
5. “Syujetli va rolli o’yinlar” markazi

Rivojlantiruvchi markazlarda ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida rejalashtiriladi.

Rejalashtirish davlat o’quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlashning muhim qismidir. Ta’lim va tarbiya jarayoni o’quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

O’quv rejasini shakllantirishda o’yin maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar faoliyatining asosiy va yetakchi turi ekanligini hisobga olish kerak.



(ilk qadam) Agar tarbiyalanuvchilarga o'yin orqali ta'lim tarbiya berilsa, ular o'zlari bilmagan holda ta'lim tarbiya jarayonida faol ishtirok etadi va berilgan bilimlarni xotirasida tez va onson saqlab qoladilar.

Yillik mavzuli rejada oy mavzulari, har bir yosh yoki yosh guruhi uchun hafta mavzulari aks ettirilgan.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari maqsadlarini belgilashga qaratilgan bo'lib, tegishli rivojlanish markazlarini tayyorlash, haftalik mavzuga muvofiq bolalar faoliyati turlarini rejalashtirish imkonini beradi. Hafta mavzusi guruhdagi barcha rivojlanish markazlarida o'tkazilishi kerak. Haftalik rejaga ko'ra guruhda ham, sayrda ham har xil turdagi o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalarning o'yin faoliyati ularning xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

Haftalik mavzu asosida har haftaning boshida rivojlantiruvchi markazlarni mavzu asosida tayyorlab qo'yilishi lozim. Bolalar qaysi rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat olib borishini o'zlari o'z hohishlari asosida tanlab oladilar va faoliyat olib boradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etishda pedagog xodimdan makrazlarni tanlab berish emas balki bolalarga erkinlik berish ta'lab etiladi. Bolalarga rivojlantiruvchi markazni tanlash imkonini berish, boladagi atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni o'zlari mustaqil holda egallashlariga yordam beradi. Mustaqil holda egallangan bilim bolaning xotirasida tez saqlanib qoladi, hammuda bolalarda qiziquvchanlik va mustaqil izlanishga bo'lgan qobiliyatlarini shakllantiradi. Rivojlantiruvchi markazlarda bolalarga erkinlikberish orqali bolahafta davomida bir markazga bog'lanib qolishini oldini olishimiz kerak albatta, bunda pedagogdan albatta pedagogik mahorat talab etiladi. Bir bolani hafta davomida barcha rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat olib borishini taminlar albatta o'z navbatida pedagog xodimning zimmasidagi ishi hisoblanadi.

“Ilk Qadam” davlat o'quv dasturi asosida:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mazmunan boy – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- o'zgartuvchan – ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;



mustaqillik va erkinlik berib rivojlantiradigan shaxs bu maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent – 2022 23-28-bet
2. Jizzakh state Pedagogical Institute " Journal of preschool education" Vol.6 No.6 (2022)
3. O'.Q. Tolipov, M. Usmnboyeva pedagogic texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" T.: "Fan" 2006 yil 298-bet
4. Sodiqova Sh.A Maktabgacha ta'limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishi uchun rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va unda to'g'ri faoliyat olib borish, bolalarga ta'lim tarbiya berishning asosiy mazmun mohiyati hamda ularga rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etishda yuzaga keladigan muammolar haqida fikr bildirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье высказано мнение об организации развивающих центров развития дошкольников в дошкольных образовательных организациях и правильной деятельности в них, основном содержании предоставления образования детям, а также проблемах, возникающих при организации развивающих центров для них.

SUMMARY

In this article, an opinion is expressed about the organization of developmental centers for the development of preschool children in preschool educational organizations and proper activities in them, the main content of providing education to children, and the problems that arise in the organization of developmental centers for them.